

MINTAQADA SANOAT TARMOQLARINI HUDUDLARARO DIVERSIFIKATSIYALASHNING IQTISODIY MEXANIZMI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Rahmonova Tillaoy Malik qizi

Qarshi davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

tilaoyraxmonova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning iqtisodiy mohiyati, uning nazariy asoslari va mintaqaviy rivojlanishdagi o'rnini tadqiq etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoatning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirish hamda ishlab chiqarish tarkibini maqbullashtirishda diversifikatsiya jarayonlarining ahamiyati asoslab berilgan. Hududlararo diversifikatsiya sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida oqilona taqsimlash, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish va hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishning muhim omili sifatida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: hududlararo diversifikatsiya, sanoat tarmoqlari, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, hududiy ixtisoslashuv, tarkibiy o'zgarishlar, iqtisodiy xavf.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi hamda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash ko'p jihatdan ishlab chiqarish tarkibining maqbulligi va hududiy joylashuvining samaradorligiga bog'liqdir. Globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, ichki va tashqi bozorlarda raqobatning kuchayishi, resurslar cheklanganligi sharoitida sanoatni diversifikatsiyalash strategik zaruratga aylanmoqda. Diversifikatsiya iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish faoliyatini turli yo'nalishlar, mahsulot turlari va hududlar kesimida kengaytirish, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda iqtisodiy xavflarni kamaytirishga qaratilgan jarayonni anglatadi. Hududlararo diversifikatsiya esa sanoat tarmoqlarini bir hudud doirasida jamlashdan ko'ra, ularni turli hududlar kesimida maqbul taqsimlash, hududlar o'rtasida ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan hududlararo sanoat diversifikatsiyasi quyidagi iqtisodiy mazmunni ifodalaydi:

- hududiy ixtisoslashuv va kooperatsiya darajasini oshirish;
- ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish;
- iqtisodiy xavf va kon'yunktura tebranishlarining salbiy ta'sirini kamaytirish;

- sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymat ulushini kengaytirish; hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni qisqartirish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiy rivojlanishda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalash masalasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda diversifikatsiya hududiy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi va innovatsion rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Iqtisodiy o'sishning hududiy omillarini tadqiq etgan Michael Porter sanoat klasterlari nazariyasida hududlararo ixtisoslashuv va diversifikatsiya raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini asoslab bergan. Uning fikricha, hududlarda sanoat tarmoqlarining o'zaro integratsiyasi innovatsion faollikni kuchaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [1]. Hududiy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini o'rganishda Paul Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko'ra, ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi va diversifikatsiyasi transport xarajatlari, bozor hajmi va aglomeratsiya samarasi bilan bog'liq bo'lib, hududlararo iqtisodiy farqlarni shakllantiradi [2].

Sanoat diversifikatsiyasi iqtisodiy xavflarni kamaytirish vositasi sifatida Harry Markowitz portfel nazariyasida ham asoslab berilgan bo'lib, iqtisodiy faoliyatni turli tarmoqlar bo'yicha taqsimlash umumiy risk darajasini pasaytirishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv keyinchalik hududiy iqtisodiyot tadqiqotlariga ham tatbiq etilgan [3]. Hududiy rivojlanish strategiyalarini o'rganishda Dani Rodrik sanoat siyosati va iqtisodiy diversifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, davlatning institutsional qo'llab-quvvatlashi sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishida muhim omil ekanligini ta'kidlaydi [4]. Uning tadqiqotlari rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat tarkibini kengaytirish iqtisodiy o'sishning asosiy manbai ekanligini ko'rsatadi. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham hududlararo sanoat diversifikatsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi sifatida baholanadi. Jumladan, hududiy ishlab chiqarish tizimlarining diversifikatsiyasi bandlikni oshirish, investitsiya oqimlarini jalb qilish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi qayd etilgan [5].

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonlariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda sanoatni hududlar kesimida rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va tarmoqlararo integratsiyani kuchaytirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar sanoat zonalarini va klaster yondashuvi hududlararo diversifikatsiyaning institutsional mexanizmini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar [6]. So'nggi yillarda iqtisodiy samaradorlikni baholash metodologiyasiga oid ilmiy ishlarda sanoat diversifikatsiyasining natijadorligini aniqlash uchun kompleks indikatorlar tizimi - ishlab chiqarish hajmi, hududiy YAIM o'sishi, bandlik darajasi, investitsiya

samaradorligi hamda eksport diversifikatsiyasi ko'rsatkichlaridan foydalanish taklif etilmoqda [7]. Bu yondashuv hududlararo iqtisodiy mexanizmlarni baholashda tizimli tahlilni talab qiladi. Hududiy iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiyalash masalalari iqtisodiy nazariyada uzoq tarixga ega bo'lib, mazkur yo'nalishning ilmiy asoslari klassik va zamonaviy iqtisodiy maktablar tomonidan shakllantirilgan. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va hududiy joylashuv nazariyasi asoslari nemis olimi Alfred Weber tomonidan ishlab chiqilgan sanoatni joylashtirish nazariyasida o'z ifodasini topgan[8].

U ishlab chiqarishni joylashtirishda transport xarajatlari, mehnat resurslari va aglomeratsiya omillarining rolini asoslab bergan. Mazkur yondashuv hududlararo sanoat diversifikatsiyasining iqtisodiy poydevorini shakllantirgan dastlabki nazariy qarashlardan biridir. Hududiy rivojlanishning o'sish qutblari nazariyasi esa François Perroux tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra iqtisodiy o'sish ma'lum markazlar (qutblar) atrofida shakllanadi va keyinchalik boshqa hududlarga tarqaladi[9]. Bu yondashuv sanoat tarmoqlarini hududlar kesimida diversifikatsiyalash orqali iqtisodiy faollikni muvozanatlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda raqobatbardoshlik va sanoat klasterlari nazariyasi muhim o'rin tutadi. Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan klasterlar konsepsiyasi hududiy ixtisoslashuv va kooperatsiyani chuqurlashtirish orqali sanoat samaradorligini oshirish mumkinligini asoslaydi[10].

Ushbu nazariya hududlararo diversifikatsiya jarayonida tarmoqlar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Iqtisodiy diversifikatsiya masalalari makroiqtisodiy barqarorlik bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda Immanuel Wallerstein ning jahon tizimi nazariyasi va tarkibiy o'zgarishlar konsepsiyasi iqtisodiy tizimlarning markaz-periferiya modelida rivojlanishini tahlil qiladi. Ushbu yondashuv hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirishda sanoat tarkibini diversifikatsiyalash muhimligini ko'rsatadi. MDH va O'zbekiston iqtisodchi olimlari tomonidan ham hududiy rivojlanish, sanoatni modernizatsiyalash va tarkibiy diversifikatsiya masalalari keng o'rganilgan.

Ularning tadqiqotlarida sanoatni hududiy rivojlantirish, resurs salohiyatidan samarali foydalanish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish hamda mintaqaviy nomutanosibliklarni qisqartirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, hududiy nomutanosibliklarni kamaytiruvchi hamda iqtisodiy xavflarni pasaytiruvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Biroq ko'plab tadqiqotlarda diversifikatsiyaning iqtisodiy mexanizmini kompleks baholash hamda uning hududiy samaradorligini aniqlash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning iqtisodiy mexanizmi va samaradorligini baholashga

qaratilgan. Tadqiqot metodologik asosini mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi va diversifikatsiya konsepsiyasi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, tizimli yondashuv, solishtirma va tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi. Sanoat tarmoqlarining hududiy kontsentratsiya darajasini aniqlashda Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI), samaradorlikni baholashda esa iqtisodiy-statistik va korrelyatsion tahlil usullari qoʻllanildi.

TAHLIL VA NATIJA

Sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning iqtisodiy mohiyati ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirishning samaradorligini oshirish, hududiy raqobat ustunliklaridan foydalanish hamda mintaqa iqtisodiyotining barqaror oʻsishini taʼminlash bilan belgilanadi. Bu jarayon sanoat klasterlari, sanoat zonalar, erkin iqtisodiy zonalar va hududiy innovatsion tizimlar orqali yanada kuchaytiriladi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda (raqobat ustunligi, klasterlashuv, yangi iqtisodiy geografiya konsepsiyalari) hududiy omillarning korxonalar samaradorligiga taʼsiri alohida taʼkidlanadi. Xususan, hududiy infratuzilma rivojlanganligi, logistika qulayligi, mehnat resurslari sifati, institutsional muhit va innovatsion salohiyat korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirishda muhim determinantlar hisoblanadi.

Hududlararo diversifikatsiyaning zarurati quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Birinchidan, iqtisodiyotning bir yoki ikki tarmoqqa haddan tashqari ixtisoslashuvi makroiqtisodiy beqarorlik xavfini oshiradi. Diversifikatsiya esa iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, mintaqalar oʻrtasida tabiiy resurslar, mehnat salohiyati va infratuzilma imkoniyatlari bir xil taqsimlanmagan. Hududlararo diversifikatsiya ushbu nomutanosibliklardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Uchinchidan, sanoat ishlab chiqarishining hududiy kengayishi ichki bozor sigʻimini oshiradi, transport-logistika xarajatlarini optimallashtiradi va qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratadi.

Toʻrtinchidan, diversifikatsiyalashgan hududiy sanoat tuzilmasi innovatsion faoliyatni ragʻbatlantiradi hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Natijada hududlararo sanoat diversifikatsiyasi korxonalar uchun quyidagi raqobat ustunliklarini shakllantiradi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish;
- bozorlarga yaqinlashish orqali savdo hajmini kengaytirish;
- risklarni hududiy taqsimlash;
- kooperatsion aloqalar orqali sinergiya samaradorligiga erishish;
- innovatsion mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish.

Shunday qilib, mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash iqtisodiy oʻsishning muhim tarkibiy omili boʻlib, u korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishning institutsional, tarkibiy va hududiy mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Mazkur jarayonni ilmiy asosda oʻrganish, uning

baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda amaliy mexanizmlarini taklif etish dissertatsiya tadqiqotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotning globallasuvi va raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida zamonaviy bozor munosabatlarining mazmuni hamda raqobatning tabiati tubdan o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish usullari va global qiymat zanjirlarining kengayishi sharoitida raqobat endilikda nafaqat narx omili, balki texnologik ustunlik, boshqaruv samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion salohiyat bilan belgilanadi.

Raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra, korxonaning barqaror ustunligi uning ichki resurslari va strategik tashabbuslari samaradorligi bilan belgilanadi. Korxona qanchalik ko'p va sifat jihatidan ustun raqobatbardosh tashabbuslarni amalga oshirsa, uning bozordagi mavqei shunchalik mustahkamlanadi. Bu esa korxonaning tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanligi, innovatsion faoliyat darajasi hamda boshqaruv tizimi samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Bu yondashuv sanoat siyosatining real iqtisodiy natijalarini aniq baholash imkonini beradi. Sanoat siyosatini ishlab chiqish va shakllantirish jarayonida siyosat menejerlari va ishlab chiquvchilar alohida bir siyosat turini takomillashtirish bilan cheklanib qolmasdan, turli siyosat instrumentlarining optimal kombinatsiyasini shakllantirishga e'tibor qaratishlari lozim. Kompleks yondashuv sanoat rivojlanishining barqarorligini ta'minlaydi hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.



1-rasm. Mintaqada sanoat siyosati sharoitida korxona rivojlanishining asosiy omillari va strategik yo'nalishlari modeli

1-rasmda korxona rivojlanish strategiyasini shakllantiruvchi asosiy tarkibiy omillar tizimli va o'zaro bog'liq holda aks ettirilgan. Modelga ko'ra, korxonaning barqaror raqobat ustunligi to'rtta fundamental omil – kapital va bozor salohiyati, kadrlar va boshqaruv sifati, texnologik daraja va innovatsion qobiliyat hamda risklarni

boshqarish va ijtimoiy mas'uliyat – integratsiyasi asosida shakllanadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari hududlararo sanoat diversifikatsiyasi mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Sanoat tarmoqlarining ayrim hududlarda yuqori darajada kontsentratsiyalashuvi iqtisodiy nomutanosibliklarni kuchaytirishi, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini pasaytirishi va tashqi kon'yunktura o'zgarishlariga sezuvchanlikni oshirishi aniqlandi. Diversifikatsiya darajasining oshishi esa hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, kooperatsion aloqalarni kengaytirish hamda yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini mustahkamlaydi.

Shu asosda hududlar kesimida sanoat ixtisoslashuvini ilmiy asosda belgilash va o'zaro ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Past diversifikatsiya darajasiga ega hududlarda yuqori qo'shimcha qiymatli va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi maqsadli dasturlarni joriy etish zarur. Shuningdek, sanoatni hududlararo diversifikatsiyalash samaradorligini muntazam monitoring qilish uchun yagona ko'rsatkichlar tizimini amaliyotga tatbiq etish hamda investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini hududiy ustuvorliklar asosida takomillashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Weber A. Theory of the Location of Industries / A. Weber. – Chicago : University of Chicago Press, 1929. – 256 p.
2. Perroux F. Economic Space: Theory and Applications // Quarterly Journal of Economics. – 1950. – Vol. 64, No. 1. – P. 89–104.
3. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations / M. E. Porter. – New York : Free Press, 1990. – 855 p.
4. Wallerstein I. The Modern World-System / I. Wallerstein. – New York : Academic Press, 1974. – 410 p.
5. Krugman P. Geography and Trade / P. Krugman. – Cambridge (MA) : MIT Press, 1991. – 142 p.
6. Fujita M., Krugman P., Venables A. J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade / M. Fujita, P. Krugman, A. J. Venables. – Cambridge (MA) : MIT Press, 1999. – 367 p.
7. Isard W. Methods of Regional Analysis: An Introduction to Regional Science / W. Isard. – Cambridge (MA) : MIT Press, 1960. – 784 p.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining sanoat ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam. – Toshkent, 2023. – 210 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida : Farmon. – Toshkent, 2022.